

MULOQOT SHAKLIDA TASVIR VA IFODA MUTANOSIBLIGI

S.Matyakupov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: диалог, бадий нутқ, муносабат, мунозара, вазифа, услуб.

Ключевые слова: диалог, художественная речь, общение, дискуссия, задача, стиль.

Key words: dialogue, artistic speech, attitude, discussion, task, style.

She'riyatda dialog, bir tomondan, ijodkor maqsad-muddaosini tayin etadigan tizim shaklida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, shoir badiiy aloqa usullarini shakllantiradigan vosita vazifasini o'taydi. Mazkur ikki nutqni bir-biridan ayirgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin, lirika tasvir ruhiyati talablariga tayanadi. Tasavvurda tahlil va idrok uyg'unligi esa masala mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ijodkor qalbida moddiylashadigan tushuncha va tasavvur aloqasi badiiy nutqda yaxlitlik kasb etadi. Unda til zahirasi vakolati va muallif ruhiyati o'ziga xosligi namoyon bo'lgan holda rivoya texnikasi muttasil ravishda rivojlanib boradigan universal jarayon xususiyatlarni vujudga keltiradi. Negaki, "so'zning bevosita, odatiy ma'nosi badiiy asar matnida yangidan yangi qirralarini namoyon qiladi, uning ma'no sig'imi benihoya kengayadiki, buni badiiy asarda tasvirlangan xususiy faktdan katta bir badiiy umumlashma kelib chiqishiga o'xshatsa bo'ladi" [9:244]. Odatda, adabiy til va badiiy nutq o'rtasida mustahkam rishta mavjud bo'lib unda asl ma'no va ustama ma'no tafovuti mantiqiy uyg'unlikni namoyon etadi. Shu ma'noda, poetik talqin til materialidan ijodiy maqsadda foydalanishni ko'zlaydi.

– Xastalangan

tuyg'ularingiz

umidsizlik

virusi bilan.

Muhabbat degan

antibiotik

bilan davolash

mumkindir faqat.

– Davolamang,

tabibim,

Shartta kesib

tashlang

tuyg'ularimni! [5:41].

Mazkur she'rda Dilrabo Mingboeva hayotiy-maishiy tafsilotlarni badiiy ifoda qilishda muloqot shakliga murojaat etadi. Unda tuyg'u, umidsizlik, antibiotik, virus, muhabbat hamda davo nisbati poetik manzarani to'laqonli tasavvur qilishga yordam beradi. Individual-ijodiy nutqda muammo hayotiy mantiq o'z o'lchamini o'zgartiradi. Shoira metafora-umumlashmani adabiy tafakkurga tenglashtiradi. Zero, "ijodning qolipi yo'q. Ijodkor muayyan ijtimoiy talabga mos stereotiplar ichida o'zligini yo'qotadi... ijod so'zga, ruhiyatga, ko'ngil ma'vosiga, shon-shuhratga daxldor" [4:86] hodisadan iborat. Muallif hayotiy stereotipdan yangi poetik ma'no yaratadi. Unda lirik subyekt hamda tasvir yo'naltirilgan obyekt bir-biriga yaqinlashadi. Shu sabab "xastalangan tuyg'ular" umidsizlikka mahkum, uning davosi esa "muhabbat degan antibiotik!". Badiiy topilmada barcha qirralar hisobga olingan holda sezim po'rtanavor tug'yoni inson ruhini adoqsiz azobga qo'yadi.

– Bugun sindirdingmi ko'ngilda nayni,

Mulzamsan, gunohkor zotsan baayni?

Oh, vijdon uyg'ondi!

So'ng yig'lab dedi:

– Kecha sotgan edim seni, og'ayni [7:97].

Abdulla Oripovning yuqoridagi she'rda dialog shakli tasvir drammatizmi – ruhiy munosabat keskinligini oshirishga xizmat qiladi. "Bugun sindirdingmi ko'ngilda nayni?" munosabat ziddiyatida ruhiy iztirob tarangligi ko'zga tashlanadi, satrlararo kuchayib boradigan ohang mohiyatni ochishga xizmat qilmaydi, balki ichki tug'yon zalvorini oshiradi. Vijdonning uyg'onishi shaxs o'z-o'zini anglashiga yo'l ochadi. Unga qilingan xiyonat, yetkazilgan aziyatning

esa javobi bor!

Shoir ijodiga munosabat bildirar ekan, adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev shunday ta'kidlagan edi: "Abdulla Orif she'riyati o'zbek lirikasiga ko'ngil dardlari suvratlari, orzu-armonlar fojiasi, ruhiy iztiroblar manzarasini olib kirdi. Shoir o'tmishda shonli bobolari dunyo bilan bo'ylashgan, bugun olam va odamni toza ko'rmoq orzusida yashayotgan o'zbekning o'tli nolalarini she'rga soldi. U quruqshagan o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib kirib, odamning ichki dardlarini, chigal ruhiyatini ifoda qildi" [2:655].

Til ma'naviy zahirasidan ham unumli foydalangan, ham xalq poetik arsenalini boyitgan ijodkor adabiy talqinida ulug'vor va salobatli estetik idrok yaqqol anglashiladi. Goh isyon, goh vazmin, goh hazilomuz, goh hikmat tarzida o'quvchi shuurini egallaydigan shoir san'atda so'z ruhiy tahlil vositasi darajasiga chiqadi. Ko'ngil mayli va ijtimoiy mohiyat o'rtasida qabarib ko'rinadigan ziddiyatda diaologik munosabat ustuvorlashadi. Ushbu holat hissiy idrokka turli-tuman parametrlardan yondashuv imkoniyatini beradi.

Shoir bir she'rda kuyladi gulni,

Uni o'qiganlar: – Takror! – dedilar.

Yana bir she'rda yozdi bulbulni,

Uni ham: – Bu eski ash'or, - dedilar [7:61].

Mazkur to'rtlik tasvir muvozanati negiziga qurilgan. Unda shoir va she'r, gul va bulbul muqobilligi poetik obyekt tahlilini shakllantiradi. Tasdiqni inkor qilish tamoyili ikki bayt aloqasini bog'laydi. Badiiy kommunikatsiya lirik ifoda subyektini belgilovchi yetakchi omil, unda munosabat va tahlil bir-birini to'ldiruvchi a'zolarga aylanadi. Monologda dialog belgilari aks etganidek, muloqot shaklida ham izhor, istak, iqrar, iltijo hamda ehtiyoj uyg'unlashadi. Tuyg'u manfaati aslida she'r tadrijini belgilaydi.

Lirikaning o'ziga xos xususiyatlari xususida Jamol Kamol o'z izlanishlarida shunday fikr bildirgan edi: "Lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagan, o'zini olam ichra bir odam deb bilgan va tashqi, obyektiv olamga o'z shaxsi olamining oynalari orqali qaragan sharoitda paydo bo'ladi. Inson o'z shaxsini olam bilan qiyoslaydi, goho unga qarama-qarshi qo'yadi, goho tashqi olam bilan tutash va payvasta ekanligini qayd etadi" [1:86-87].

Ma'lumki, lirik ifodada so'zga yuklatilgan ritorik munosabat tadqiq sahniga chiqadi. Matndagi nozik tuyg'u muallif shaxsiyati va she'r ruhiyatini bir-biriga muqobillashtiradi. Aynan badiiy nutqda tasavvur va g'oya raqobatga kirishuvini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Poetik tushunchada ma'no tarmoqlanishi tahlil malakasi ustuvorlashuviga zamin hozirlaydi. "Dialog matnga nisbatan birlamchi vazifa bajaradi, unda ma'no va g'oya yaratish asosiy muddao sifatida tanlanadi" [3:113]. Bu jarayonda ijodiy hamkorlik qadriyat, an'ana va madaniyat jipslashtirib, adabiy talqin ijtimoiy voqelik hamda badiiy shartlilikni bir-biriga muvofiqlashtiradi. Matndagi qiymat, nuqtayi nazar va idrok she'riy yo'sin tabiatini belgilaydi. Lug'aviy birlik o'rni egallaydigan matn ritorik munosabat hosil qiladi. Unda kuzatish va mushohada qorishgan holda ijodkorning dialoglashgan tuyg'ularini yuzaga chiqaradi:

Men siz aytgandayin hammami sevdim,

Hammaga ishondim, mana oqibat:

O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,

Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat [6:57].

Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Onamga xat"

she'ri olti banddan iborat. Unda cheksiz sog'inch yuragini o'rtagan farzand ona siymosi bilan ritorik munosabatga kirishadi. "Tunlari charog'on shunday shaharda" ham yolg'iz lirik subyekt hayot va xayol ziddiyatidan iztirob chekadi. Orzularga hamroh ko'ngil izhori dag'al voqelik silsilasida sinadi! Ruhiiy holat aniq manzarasi hamda ma'no ta'kidi soddaligi she'rdagi samimiyatni ta'minlaydi. Muallif dil rozini oshkor etish yordamida kitobxon qalbida hamdardlik uyg'otadi. Shuning uchun ham aldov va riyodan holi satrlar o'quvchini ishontiradi, murojaat zamiriga singib ketgan savollar tinglovchini ham o'yg'a toldiradi. Zotan, "ichki dunyosi boy ko'ngil kishilariga yashash hamisha qiyin kechadi. Sababi bunday shaxs voqelikning hech qanday ishtirokisiz ham doim qarama-qarshi ikki kuch: ruh va tana o'rtasidagi kurash og'ushida kun kechirishga mahkum. Ruhiiyat, ko'ngil odamni yuksaklarga chorlasa, tana uni yerga tortib, nafsning istaklarini qondirishga undaydi" [2:306].

Chinakam tuyg'u sathidan chiqqan, ezgulik va go'zallikka burkangan misralar har qanday g'araz hamda manfaatdan yuksak nozik sezim uyg'otadi. She'r ritorikasi, birinchidan, hayotiy vaziyatni oydinlashtiradi, ikkinchidan, muloqot ishtirokchilari nuqtai nazarini keskinlashtiradi, uchinchidan, badiiy axborotning yo'naltirilganlik darajasini tavsiflaydi, to'rtinchidan, tahlil va talqin o'rin almashinuv jarayonini badiiy talqin markaziga olib chiqadi:

Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:
Men - zangor yaylovda olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulunman [6:57].

Lirik qahramon tomonidan g'oyat o'ziga xos sharhlangan ruhiy holat muallif pozitsiyasini belgilab beradi. Maqsad va vazifa nisbati esa tasvirdagi manzaradan harakatga o'tishga zamin hozirlaydi. "Ko'kka ham ayon" dard lirik qahramon "uyuridan ajrab qolgan qulunday" bo'zlashiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ichki nutq qo'llangan tashbehdan tugallanmagan ifoda munosabatini hosil qilishga yo'naltiriladi. Aniqrog'i, matn darajasidan muallif tanloviga o'tish monologik tafakkur mutanosibligini vujudga keltiradi. Dialogda "San'atkorning san'ati shundaki, u har bir so'z, holatdagi ma'nolarni bus-butun qamrab olishga so'zning ich-ichiga, moyasiga kirib borishga intiladi" [8:44]. Mazkur vaziyatda so'z ruhiy holat va poetik g'oya bilan aloqaga kirishadi. She'rda muallif tinglovchi sifatida parda ortidagi ona timsolini tanlaydi. Tasdiqni inkor qilish usuli ritorik munosabat ustuvorlashuviga zamin hozirlaydi. Adabiy talqinda shoir adresat hamda adresant orasida tenglikni saqlamaydi, balki tinglovchi munosabatini so'zlovchi konsepsiyasiga bo'ysundiradi:

Men sizni o'ylayman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman,
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman [6:57].

She'r jonli muloqot asosiga qurilgan, suhbatdoshga bevosita va bilvosita murojaat sathida mushohada goh kuchayadi, ba'zan esa ziddiyatni keskinlashtiradi. Savol, ilinj, inkor, tasdiq va munozara dialoglashgan mohiyat va uning sintezi monolog matn strukturasi boshqaruvga yo'l ochadi. Til germeneytik mohiyati esa muloqot shaklini

tavsiflaydi. Birinchi misrada iqrar vaziyatni oydinlashtiradi, ikkinchi misrada tasdiq va inkor ziddiyati tasavvurni tiniqlashtiradi, uchinchi va to'rtinchi misralar qarshilantirish usuli dinamikasini belgilaydi. So'zlovchi va tinglovchi ichki aloqasi olam sir-sinoatini anglashda hayratga tushgan lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlaydi.

Adresatga yo'naltirilgan murojaatda lirik subyekt xarakteri namoyon bo'ladi. O'zak so'z she'riy qahramonni badiiy nutq vositasida kashf etishga zamin hozirlaydi. Muloqot shaklida ko'ngil va ruhiyat o'zaro aloqaga kirishadi. Poetik tasavvurda paydo bo'lgan manzarada adabiy talqin kommunikatsiyasi hal qiluvchi vazifani bajaradi. Unda ikki jihat, ya'ni adresat maqomi va adresantga munosabat birlashadi. So'zning estetik quvvati va ma'no-mohiyati dialogning ijodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Badiiy o'ziga xoslik, lug'aviy birlik shakl va uslubda qayta idrok etiladi. Nutqiy xulq-atvor barqarorligi lirik qahramon qiyofasini oydinlashtiradi.

M.Yusufning "Onamga xat" she'ri badiiy kommunikatsiya asosiga qurilgan. Unda ritorik munosabatga singdirilgan mushohada umumlashmasi tasavvurni aniqlashtirish imkonini beradi. Rivoya texnikasida ijodiy niyatdan poetik vazifadoshlikka o'tish taomili ustuvorligini hisobga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shoir inson hayoti ziddiyatlarini ona shaxsiga murojaat qatiga singdirib yuboradi. Aslida muloqot shakli bir tomonlama yo'nalish xarakteriga ega bo'lib, lirik subyekt o'z hayotiy mushohadasini tasdiqlashga intiladi. Ona siymosi bu holatda estetik a'mol vazifasini o'taydi. Muallif aksar o'rinlarda tinglovchi maqomi fenomenini tadqiq sahniga chiqaradi. Ilohiy tuyg'u so'zga ko'chirilgan mohiyati badiiy nutq malakasini tavsiflaydi, unda tasvir va ifoda sintezi ko'zga tashlanadi.

Umuman, she'riyatda dialog badiiy nutq malakasini tartibga soladi. Unda bir tomondan, tafsilotga aniqlik kiritish, ikkinchi tomondan, badiiy umumlashma yorqinligini ta'minlash istiloh zimmasiga tushadi. Aslida lirik ifoda shakllanishida rivoya texnikasidan foydalanish qaltis usul. Negaki, muloqot shakli bajaradigan vazifa aniq belgilab olinmasa, tasvir ruhiyatida nomutanosiblik vujudga keladi. Zero, tushuncha va ifoda nisbati ijodkor uslubini belgilagan holda munosabat, munozara, tavsif, talqin va tahlil asosiy qismlar sifatida badiiy butunlikni hosil qiladi.

Ta'kidlash kerakki, lirikada tushunchalar mohiyati hamisha mavhumlikka tayangandek ko'rinadi. Ushbu murakkablikning qay darajada aks ettirilganligini tuyg'u va idrok orasidagi aloqa uzviyligi ta'minlaydi. Shuningdek, unda ijodkor tomonidan estetik obyektga yuklatilgan g'oyaning mazmundorligi yetakchi mavqe kasb etadi. Eng muhimi, badiiy munosabatning teranligi va estetik idrok imkoniyati badiiy talqinning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Mazkur jarayonda she'rning vujudga kelishida ijodkor ko'ngilda kechgan olam va odam orasidagi zohiriy dialog alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'rinadiki, she'riyatda dialog va monolog ifoda aniqligini yetakchi usul darajasiga ko'taradi. Semantik-sintaktik munosabatlar tizimi nutqiy ta'sirning ijtimoiy amaliyotini ancha teranlashtiradi. E'tiborli jihati shundaki, mazkur holatda ijodkor individual uslub orqali namoyon bo'lgan ritorik shakl badiiy idrokning kengayishiga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar

1. Жамол Камол. Шеър санъати. –Т.: "Янги аср авлоди", 2018.
2. Йўлдошев Қ. Оқкич сўз. –Т.: "Тафаккур", 2019.
3. Кихней Л.Г., Круглова Т.С. К проблеме диалога в лирике Анны Ахматовой // Крымский Ахматовский научный сборник. Вып. 7. –Симферополь: Крымский архив, 2009.
4. Каримов Б. Рухият алифбоси. –Т.: "Адабиёт ва санъат", 2016.
5. Мингбоева Д. Йўлдаги аёл. –Т.: "Машхур-пресс", 2020.
6. Мухаммад Юсуф. Сайланма. –Тошкент: Шарқ нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2007.
7. Орипов А. Адолат кўзгуси. –Т.: "Адолат", 2005.
8. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкент: «Шарқ», 2007.
9. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. –Т.: Навоий университети, 2018.

REZYUME

Maqolada she'riyatda dialog tabiati, badiiy nutqda aniqlik va siriqlikni ta'minlashi, munozara va munosabat bir-biriga o'tib turishi, tagmatda ifoda ijodiy mustaqilligi nazariy umumlashtiriladi. Unda rivojga texnikasi hamda vaziyat aloqadorligi, poetik talqin konsepsiyasida muloqot maqomi, tasvir ruhiyati shakllanishida nominativ, semiotik va kommunikativ vazifadoshlik hamda uslubiy tafovutlanish xususida mushohada yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье теоретически обобщается природа диалога в стихах, обеспечение ясности и лаконичности художественной речи, взаимозависимость дискуссии и мироощущения, творческая независимость выражения в контексте. Наблюдается связь между техникой повествования и ситуацией, статус общения в концепции поэтического толкования, номинативная, семиотическая и коммуникативная функции в формировании психики образа, а также методологические различия.

SUMMARY

The article theoretically generalizes the nature of dialogue in poetry, the provision of clarity and conciseness in artistic speech, the interdependence of debate and attitude, the creative independence of expression in the context. It observes the connection between the technique of narration and the situation, the status of communication in the concept of poetic interpretation, nominative, semiotic and communicative functions in the formation of the image psyche, as well as methodological differences.

СИРОЖИДДИН САЙИД ҲАЖВИЯЛАРИ

А.Э.Пиримкулов – филология фанлари номзоди

Ўзбекистон Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги давлат адабиёт музейи

Таянч сўзлар: синтез, сатира, сюжет, мажоз, феномен, мотив, поэтика, образ, қаҳрамон, пафос.

Ключевые слова: синтез, сатира, сюжет, аллегория, феномен, мотив, поэтика, образ, герой, пафос.

Key words: synthesis, satire, plot, allegory, phenomenon, motive, poetics, image, hero, pathos.

Гап ҳозирги ўзбек ҳажвий лирикаси ҳақида борар экан, Ўзбекистон халқ шоири Сирожиддин Саййид ижодига ҳам бир қур назар ташлашимизга эҳтиёж бор. Боиси, Сирожиддин Саййид ҳам қулги санъатини, унинг турли туман даражаларини намоеъ этишда ўзига хос намуна кўрсатган. Шоир етук ва баркамол асарлар яратишда икки устунга таянади. Бири – мумтоз шоирлар мероси, иккинчиси замондош устоз шоирлар ижоди. Қисқаси, шоир нафақат ўзбек адабиёти балки қўҳна шарқ ва ғарб адабиёти анъаналарини пухта ўзлаштиргани учун ўзи ҳам умрбоқий асарлар яратишга жазм этади. Бу фикрни унинг сатирик асарларига нисбатан ҳам бемалол айта оламиз. Ижодда билим ва савия жуда зарур унсур. Бироқ бу етарли эмас. Шоирда ўзига яраша талант, қувваи ҳофиза бўлмаса, у ўқувчининг юрагини ларзага соладиган асар яратолмайди. Сирожиддин Саййидда ана шу нозик белги ва хусусиятлар мавжуд бўлгани боис адабиёт оламида мангу яшаб қоладиган асарлар яратишга эришган:

Ғанимлар сен билан бизни ҳали йиллаб гапиргайлар,

Кезармиз ортимиздан соялар йўллаб гапиргайлар.

Ғазалда ғийбат ва ғийбатчилик қораланмоқда. Ўзининг ва у ҳақда ижобий фикр айтганларнинг, масалан, танқидчиларнинг ғийбатига нишон бўлиши, энг ёмони бу каби иғво йиллаб давом этишини кескин фош этан. Аммо медалнинг ортига назар солсак, бу ерда яхши маънодаги ғийбат – фахрия борлигини сезиш қийин эмас. Ғанимлар-ку ғийбат қилар, дўстлар-чи? Улар ҳам бизни йиллаб сўзлашлари мумкин-ку. Хуллас, коса остида нимкоса йўқ эмас.

Давримиз ҳажвчилигида Ўзбекистон халқ шоири Э.Воҳидов “Матмуса” туркумини, А.Орипов қатор зиёлийларнинг сатирик образини, Анвар Обиджон Кулкул афанди ва Уста Гулмат образини яратган бўлса, С.Саййид “бозор ижодиёти” туркумини, шунингдек “Рўзгор битиклари” сериясини кашф этди. Мазкур туркумлар ўтган аср 90-йилларида илдиз отган ва ҳали хануз давом этиб келмоқда.

Шоирнинг “Бозор ижодиёти” туркумидан ўрин олган қатор шеърларида турмушимизда жуда кўп учрайдиган, бироқ ҳадеганда унчалик эътибор берилмайдиган қусурларимизни шоир енгилгина юмор тиги билан фош этганини ҳам кузатиш мумкин. Масалан, сатира устасининг “Китоб олинг” номли ҳажвиясида автор чўнтаги пулга тўлган айрим тадбиркорларнинг китоб ўқишга ҳафсала қилмаслиги, фалон сўмга иморат қуриб, куёвига охири русумдаги

автомобилни совға қилган бойвачча умрида бир дона китоб харид қилмаслиги, бу қусур фарзанд ва набиалари тарбиясига ҳам салбий таъсир кўрсатиши мумкинлигини кескин фош этади:

Ўрикзордан қошин олинг,

Сирғалидан мошин олинг,

Жаҳолатнинг бошин олинг,

Биттагина китоб олинг.

Инобатга олиш лозимки, шоирнинг сатирик ва юмористик асарлари фақат шу туркумга кирган шеърлар билан чегараланмайди. С.Саййиднинг яна шундай қулги элементлари билан сугорилган асарлари ҳам борки, улар ҳам қундалик турмушимиздаги иллатларни фош этиши жиҳатдан махсус туркумга кирган қатор асарлари сира қолишмайди. Афтидан, шоир истиклол йилларида ёзилган хангомаларини шартли йўсинда юқоридагидек туркумларга ажратган кўринади. Шоирнинг ҳажвий ғазалларини ўқиганда, унда классик оҳанглар садоси аниқ эшитилди. Масалан, “Ўлдиргуси” радибли ғазал мумтоз адабиётда жуда кўп учрайди. Сирожиддин Саййид эса шундай радиф билан ҳажвий ғазал ёзишга журъат қилган:

Охир мени бу шаҳарнинг дўндиқлари ўлдиргуси,

Дўндиқларининг қўл, оёқ, қўлдиқлари ўлдиргуси.

Ғазалда баъзи кизлармизнинг елкаси очик юриши, йиртиқ жинси кийиши, билақларини татиуровка қилиши, кўчадан бери келмаслиги, хуллас, беҳаёлиги танқид остига олинган.

С.Саййид ҳажвий ғазалларда кўпроқ XIX аср Қўқон адабий муҳити намояндаларининг ғазалчилик мактабидан улги олганини сезиш қийин эмас. Масалан, “Жўралар” ғазали Муқимийнинг “Навбахор”, “Ахтарайлик” ғазали Фурқатнинг шу номдаги, “Бўл” радибли ғазали эса Завкийнинг машҳур “Бойи бўл, баззоз бўл” номли ғазалига татаббў шаклида ёзилган. Тафовут буки, салафлар табиат ё ишқий йўналишда ғазал битганлар. С.Саййид эса ўша вазн ва радифни асос сифатида қабул қилади ва мавжуд одамшарчилик иллат ва қусурларини фош этувчи ҳажвий ғазал битади. Шунингдек, шоирнинг “Чумолига ҳазил” шеъриси Э.Воҳидовнинг, “Толиб Йўлдош хангомаси” асарида эса А.Орипов сатирик ижод мактабининг таъсири кўзга яққол ташланади. Шоир иқрорича, хангомани оғзаки йўсинда ўтган аср 80-йилларида устоз шоир Толиб Йўлдошнинг ўзи айтиб берган экан. Ана шу воқеа кейинчалик гўзал бир сатирик шеърнинг яратилишига туртки берган. Алқисса, Толиб Йўлдошнинг бир эшаги бўлиб, у ҳам ўз аравасини, ҳам